

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03.30.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

JUMANIYAZOV ANVARBEK BEKCHANOVICH

**SPORT MENEJMENTI YO‘NALISHIDA TA‘LIM OLAYOTGAN
TALABALARNING JISMONIY RIVOJLANISHI VA JISMONIY
TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Jumaniyazov Anvarbek Bekchanovich

Sport menejmenti yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarning jismoniy rivojlanishi
va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish.....3

Жуманиязов Анварбек Бекчанович

Совершенствование физического развития и физической подготовленности
студентов обучающихся по направлению спортивный менеджмент25

Jumaniyazov Anvarbek Bekchanovich

Improvement of physical development and physical preparedness of sports
management students49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03.30.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

JUMANIYAZOV ANVARBEK BEKCHANOVICH

**SPORT MENEJMENTI YO‘NALISHIDA TA‘LIM OLAYOTGAN
TALABALARNING JISMONIY RIVOJLANISHI VA JISMONIY
TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1/PhD/Ped1450 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifaning www.jtsu.uz va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Matkarimov Rashid Masharipovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: Dadaboyev Odiljon Jalolidinovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Arziqulov Muqum O'ralovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.30.03.12.2019.ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "31" may soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-1779, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Web-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0011 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "18" 05 kuni tarqatildi.
(2023 yil "18" 05 dagi 21 raqamli reyestr bayonnomasi)

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

M.R.Boltabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.d.(DSc), dotsent

M.X.Mirjamolov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

F.A.Kerimov



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda zamonaviy ijtimoiy hayotning barcha jabhalaridagi chuqur o'zgarishlar asosida boshqaruv mutaxassis-menejer shaxsiga nisbatan tamoman yangi talablar qo'yimoqda. Jamiyatning raqobatbardosh, ya'ni xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarishning doimiy o'zgarib turuvchi sharoitlarida murakkab kasbiy vazifalarni bajara oladigan hamda qaror chiqara oladigan mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Jismoniy tarbiya va sportning ahamiyatini to'liqroq anglab olish uchun bo'lajak sport menejerlarga oliy o'quv yurtida jismoniy tarbiya va sportni o'qitish va o'rganish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga nisbatan to'g'ri ishlab chiqilgan uslubiy va metodik yondashuvni taqozo etadi.

Jahondagi oliy o'quv yurtlari ta'lim amaliyotida sport menejerlarini tayyorlash, ularning hozirgi zamondagi jismoniy tarbiya va sport haqidagi "tushunchasi" boshqaruv tizimiga inson omilini jalb qilish, xodimning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va uning shaxsini mustaqil ro'yobga chiqarishga intilishi zarurligini anglab yetish bilan bog'liq. Agar biz mamlakatimizda raqobatbardosh jismoniy tarbiya va sport menejerlarga ega bo'lishni xohlasak, unda sport menejerlar tayyorlash muammosiga boshqacha nuqtai nazardan yondashishimiz, ya'ni iqtidorli sport menejerlarning o'rta miyona rahbardan ajratib turuvchi tabiiy, shaxsiy va jismoniy sifatlarni rivojlantirishimiz zarur. Uning boshqaruv kommunikativ, ma'naviy, jismoniy va shaxsga xos sifatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ular murakkab muammolar va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlashi zarur.

Respublikamizda sportchilar tayyorlash tizimida yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, mashg'ulot jarayonlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida boshqarish tobora ommalashib, ustuvor vazifalarga aylanib ulgurdi. «Yurtimiz vakillarining Olimpiya o'yinlari, jahon chempionatlari, Osiyo o'yinlari va chempionatlari hamda boshqa xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishayotgani, dunyoda O'zbekistonning obro'-e'tibori va sport salohiyati yanada oshayotgani, respublikamiz hududlarida jahon andozalariga mos sport inshootlari barpo etilayotgani, o'quvchi va talaba yoshlar o'rtasida uch bosqichdan iborat «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» sport o'yinlari ommalashib borayotgani ayniqsa e'tiborlidir»¹. Shu o'rinda aytish kerakki, jismoniy tarbiya va sport menejmenti ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlashda jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini qayta tahlil qilib chiqish dolzarb hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport faoliyatining barcha jabhalarida so'nggi besh yilda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vaziyatni keskin o'zgartirish, zamon talablariga javob bera olmaydigan boshqaruv uslublarining o'rniga xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda yetakchi sport mamlakatlaridagi sportni boshqarishning ilg'or uslub va andozalarini amaliyotga tatbiq qilishni talab qiladi. Buning uchun jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv dasturlarida alohida diqqat qaratadigan jihatlarni tahlil qilish, jismoniy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3031-sonli Qarori, Toshkent Sh. 03.06.2017 yil.

tarbiyaga mo'ljallangan qismini qayta ko'rib chiqish, ya'ni bilimlar hajmini kengaytirish, tarbiyaning mohiyatini anglash, insonning har tomonlama rivojlanishida ehtiyojlar va faoliyatining o'zaro bog'liqligini tushunish zarur. Shunday qilib, jismoniy tarbiya va sport menejmenti ta'lim yo'nalishi talabalarining jismoniy tarbiya – sport mahoratini (kompetentligini) shakllantirish hamda kasbiy faoliyat jarayonida jismoniy tarbiya va sport qadriyatlaridan maqsadli foydalanish muammosi dolzarflik kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida hamda 2017 yil 3-iyundagi PQ-3031-son "Jismoniy tarbiya va sportni yana-da rivojlantirish to'g'risida"gi, 2021 yil 5-noyabrdagi PQ-5281-sonli «2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida»gi qarorlarida va jismoniy tarbiya va sport bo'yicha boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda oldimizga qo'yilgan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash sifatini yaxshilash vazifalarini amalga oshirish uchun ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish: I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy-madaniy, ma'naviy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: hozirgi kunda yurtimizda sportchilar uchun mashg'ulot jarayonlarini tashkillashtirish, ularning musobaqalarga tayyorgarligini boshqarishda amal qilinishi lozim bo'lgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilmoqda va sport amaliyotiga joriy etish keng qo'llanilmoqda. Sportchilarni jismoniy rivojlanish darajasini oshirish, jismoniy tayyorgarligini ratsional taqsimlangan yuklamalar orqali takomillashtirish va turli jismoniy vositalar orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirishi bo'yicha olimlar tomonidan bir qancha tavsiyalar ishlab chiqilgan (F.A.Kerimov, I.A.Koshbaxtiyev, R.S.Salomov, R.M.Matkarimov, R.D.Xalmuxamedov, K.F.Bayazitov, M.S.Olimov, D.D.Safarova, T.S.Usmanxodjayev, D.X.Umarov, E.X.Xalilov, A.E.Zaynabiddinov, Sh.S.Xushmatov, G'.A.Yusupov, M.O'.Arziqulov)².

Dunyoda, sportchilarni tayyorlash bo'yicha turli izlanishlar olib borilib, ushbu muammolarga yechim topishda (A.A.Gujalovskiy, Yu.V.Verxoshanskiy,

² Ф.А.Керимов. Методика обучения сложным технико-тактическим действиям в вольной борьбе: дисс. ... кандидата педагогических наук: 13.00.04. - Москва, 1983. - 179 с., Кошбахтиев И.А. Управление подготовкой футболистов. - Т., 2001. - 57 с., Саломов Р.С. Спорт машгулотининг назарий асослари. /Ўқув қўлланма /Т: - 2005.-261 б; Маткаримов Р.М. Тяжелая атлетика Учебник. –Ташкент: Издательско-полиграфический отдел УзГИФК, 2005.-С.-141-145., Р.Д.Халмухамедов. Технология подготовки единоборцев на этапах годичного цикла. Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. Т.: 2009.-300 с; Баязитов К.Ф. Оптимизация тренировочного процесса тяжелоатлетов высокой квалификации в годичном цикле /Дисс.пед.наук./ 2009.,-130 с., Олимов М.С. Ўрта масофага югурувчи спортчи-талабаларни мусобақаларга тайёрлаш услубияти.13.00.04. Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Т:-2011.-160 б; Сафарова Д.Д. Спорт морфологияси /дарслик/ Тошкент 2015.-2006; Усманходжаев Т.С., Умаров Д.Х. Спорт педагогик маҳоратни ошириш. ИТА-ПРЕСС нашриёти. Т.: 2018. - 270 б.; Халилов Э.Х., Зайнабиддинов А. Э. Хушматов Ш.С. Жисмоний машқлар физиологияси /дарслик/ А:–2019.- 226 б; Юсупов Ф.А. Спорт педагогик маҳоратини ошириш. Илмий техник ахборот-пресс нашриёти, 2019.- 135б., Арзикулов М.Ў. Оғир атлетикачиларнинг спорт такомиллашуви босқичидаги машгулот воситалари ва юкломалари ҳажмини оптималлаштириш/п.ф.б.ф.д. (PhD) диссертацияси.Ч:-2019.-131 б.

N.G.Ozolin, E.A.Shirkoves, A.Yu.Titlov, S.M.Lunkov, A.A.Shustov, E.V.Shustova)³ va boshqa mutaxassislar tomonidan ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Jumladan yengil atletika turi bo'yicha oliy o'quv yurtlari talabalarini jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, ularning tayyorgarligini turli bosqichlarda takomillashtirish samarali tayyorgarlik metodlaridan foydalanib, oliy ta'limda jismoniy tarbiya va sport bilimlarini talabalarga o'qitish maqsadida murabbiy va mutaxassislar tomonidan bir qancha ustuvor vazifalar belgilangan. Jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan muammolar bo'yicha V.N.Platonov, N.E.Xromsov, V.G.Nikitushkinlar⁴ tomonidan bir qator ilmiy ishlar olib borilgan.

Sportchilarni musobaqalarga tayyorlashda yuklamalarni ratsional taqsimlash, asosiy va qo'shimcha jismoniy vositalarni to'g'ri tanlash hamda turli iqlim sharoitlariga moslashish bo'yicha (N.V.Reshetnikov, L.P.Matveyev, V.A.Korobenko, E.S.Ozolin, Yu.V.Verxoshanskiy, S.M.Bloskiy, V.A.Gorovoy, A.S.Bloskiy)⁵ tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlangan davrda talaba-sportchilarni o'z kasbi yo'nalishida samarali tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ularni mashg'ulot jarayonini tashkillashtirishda va musobaqalarga tayyorlashda hozirgi kunda raqamlashtirilgan texnologiyalar qo'llanilishi dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Oldin murabbiy va sportchilarni tayyorlash bo'yicha mutaxassislar o'z hissiyotlariga tayanib faoliyat olib borgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar yordamida inson ko'ziga ko'rinmas xato va kamchiliklarni aniqlash imkoniyati paydo bo'lib, talaba-sportchilarni mashg'ulotlarda tayyorgarlik jarayoni yanada samarali tashkil etilmoqda (P.K.Petrov, R.A.Burnashev, Sh.A.Erkinov, W.Killing, O.Heiri va boshqalar).

³ Озолин Н.Г. Настольная книга тренера: наука побеждать. АСТ: Астрель, - М.: 2008. - 863 с.; Ширковец Е.А. Критерии и механизмы управления подготовкой спортсменов в циклических видах спорта/ Е.А. Ширковец, А.Ю. Титлов, С.М. Луньков// Вестник спортивной науки. - 2013. - №5. - С. 44-48.; Гужаловский А.А. Этапность развития физических (двигательных) качеств и проблема оптимизации физической подготовки детей школьного возраста: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. - М.,1979. - 26 с., Шустов А.А. Здоровьесберегающая технология скоростно-силовой (прыжковой) подготовки высокорослых спортсменов/ Е.В., Шустова А.А. Шустов//Проблемы и перспективы развития студенческого спорта: материалы международной научно-практической конференции, Караганда: Изд-во КарГУ им. Е.А. Букетова, 2017. - С. 128-131., Верхошанский Ю.В. Выносливость, как фактор, определяющий движения в циклических видах спорта //Научно-спортивный вестник. - М.,1988. №1. - С. 15-20.

⁴ Платонов В. Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения: учебник тренера высшей квалификации / В. Н. Платонов. – М.: Советский спорт, 2005. - 820 с., Н.Е.Хромцов. Моделирование физической подготовленности высококвалифицированных бегунов на средние и длинные дистанции: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук: 13.00.04. Авторефераты диссертаций. 2008:-66 с; Никитушкин В.Г. Современная подготовка юных спортсменов. Методическое пособие. - М.: Москомспорт, 2009. – 112 с.

⁵ Решетников Н.В. Таблица оценки физической подготовленности студентов.// Теория и практика физической культуры, 1991 г. № 4, Матвеев, Л. П. Теория и методика физической культуры (Общие основы теории и методики физического воспитания, теоретико-методические аспекты спорта и профессионально прикладных форм физической культуры): учеб. для ин-тов физ. культуры / Л. П. Матвеев. - М.: Физкультура и спорт, 2001. - 543 с., Коробенко В.А. Динамика показателей специальной физической подготовленности прыгунов тройным прыжком с разбега высокой квалификации в годичном цикле подготовки / В.А. Коробенко // Педагогика, психология та медико-біологічні проблеми фізичного виховання і спорту. - Харків: ХДАД1. - 2006. - № 7. - С. 55-60., Озолин Э.С. Спринтерский бег / Э.С.Озолин. – М.:Человек, 2010. – 176с., Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов / Ю.В. Верхошанский. - М.: Советский спорт, 2014. - 332 с., Блоцкий С. М., Горовой В. А., Блоцкий А. С.. Проектирование тренировочного процесса юношей 13-14 лет в беге на средние дистанции в годичном цикле тренировки. Теория и практика физической культуры. - 2017. -№ 4. - С. 39-42.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №V/III "Jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishda falsafiy-huquqiy, psixologik-sotsiologik tadqiqotlarni rivojlantirish hamda sport menejmenti, marketingi sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sport menejmenti yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jismoniy harakat tayyorgarligini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarning mashg'ulot jarayonida jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan hamda umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalari haqida tushunchaga ega bo'lish, ularni ajrata olish uchun model yaratish;

talabalarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun vosita va usullarni ratsional tanlashga qaratilgan mashg'ulotlar turini ishlab chiqish va musobaqada g'olib bo'lish imkoniyatini kengaytirish;

talabalarning mashg'ulot jarayonida dominant jismoniy sifatlarni aniqlashga qaratilgan shkala ishlab chiqish hamda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish imkoniyatini kengaytirish;

talabalarning jismoniy ko'rsatkichlarini maqsadli amalga oshirish, shiddatli yuklamalarni yuqori darajada bajarish, jismoniy vositalarni tanlashda va olingan natijalarni tahlil qilish uchun bir necha bosqichli modelni ishlab chiqish hamda kasbiy mahorat darajasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining jismoniy tarbiya va sport menejmenti yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning yengil atletika sport turining nazariy va amaliy-mashg'ulot jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak sport menejerlarining jismoniy sifatlarini rivojlantirish va tayyorgarligini takomillashtirishda qo'llanilgan vosita va uslublar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuvlar, anketa so'rovnomasi, pedagogik testlash, pedagogik tajriba hamda tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish uchun mashg'ulot yuklamalarni rejalashtirish, ratsional taqsimlash, umumiy hamda maxsus tayyorgarlik vositalarini maqsadli tanlashga qaratilgan "Loyihalash" modelini ishlab chiqish hisobiga uslubiyat takomillashtirilgan;

talabalarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun organizmni harakatga bo'lgan ehtiyojini qoplash va ortiqcha toliqishini keltirib chiqarmaydigan vosita va usullarni ratsional tanlashga qaratilgan "Beshkurash" mashg'ulotlarini ishlab chiqish hisobiga musobaqa dasturlari bo'yicha jamoa bo'lib ishlash imkoniyati kengaytirilgan;

talabalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligidagi katta farqlarni muvofiqlashtirish uchun mashg'ulot va musobaqa jarayonlari modellashtirilib,

maxsus harakatlarni dominantligini aniqlashda “ko‘p funksiyali shkala”ni ishlab chiqish hisobiga ortda qolayotgan jismoniy sifatlarni maqsadli tanlash hamda oshirish imkoniyati kengaytirilgan;

talabalarning jismoniy ko‘rsatkichlarini amalga oshirish uchun shiddatli yuklamalarni yuqori darajada bajarishda – sifat bosqichini, amaliy jismoniy tarbiya vositalarini tarkibini aniqlashga, ularni maqsadli va vaqt bo‘yicha ketma ketlikda taqsimlashga hamda mashg‘ulotlarning tegishli shkalalarini tanlashga imkon beradigan – texnologik bosqichini, natijalarni tahlil qilish uchun - nazorat turlarini o‘zida jamlagan “Amaliy jismoniy tayyorgarlik modeli”ni ishlab chiqish hisobiga kasbiy mahorat darajasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalar, ishlab chiqilgan “Loyihalash” modelini mashg‘ulotlardagi yuklamalarni rejalashtirish, jismoniy vositalarni maqsadli tanlash va ratsional taqsimlash, yuklamalarni bajarishda ortiqcha toliqish va mashg‘ulotni maksimal tarzda samarali o‘tkazish evaziga talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi oshirilgan va yengil atletika sport turidan o‘tkaziladigan ommaviy sport tadbirlarida faol va samarali ishtirok etishlari kuzatilgan;

oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan talabalarning sportga doir mahoratini yengil atletika sport turida foydalaniladigan maxsus va umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalari orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini hamda dominant jismoniy sifatlarini aniqlash shkalasi ishlab chiqilgan;

oliy o‘quv yurtlari talabalarining harakatga bo‘lgan ehtiyojini qoplash vosita va usullarni ratsional tanlashga qaratilgan modellashtirilgan “Beshkurash” musobaqa dasturlari qo‘llanilib, jamoa bo‘lib ishlash imkoniyati kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot davomida olingan natijalar nazariy-uslubiy jihatdan asoslangan, ilmiy tadqiqotning izchil bajarilganligi, mantiqiy yondashuvga egaligi, tanlangan uslublarning tadqiqot maqsadi va vazifalariga to‘liq mosligi, xorijiy va yurtimiz olimlarining ilmiy-tadqiqotlaridagi ilmiy xulosalar va tavsiyalarga asoslanganligi, dissertatsiyada keltirilgan amaliy taklif va tavsiyalar sport menejmenti yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarning sportga doir mahoratini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi, natijalarning tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sport menejmenti yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarning sport mahoratini rivojlantirish va takomillashtirishga yo‘naltirilgan metodikasi ishlab chiqilganligi, ularning ilmiy-uslubiy ahamiyati ochib berilganligi hamda mazkur uslublar doirasida jismoniy tarbiya va sport menejerlarining tayyorlash zaruratining muhimligi isbotlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, sport menejerlarining sport mahoratini rivojlantirishning uslublari ishlab chiqildi hamda ushbu uslublar bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport menejerlarida amaliy mashg‘ulot jarayonlaridagi faoliyatlarini takomillashtirish, keng mulohazaga tayangan holda harakat qilish tizimini yaratish, mavjud muammolarga nisbatan kreativ yondashuv qobiliyatini oshirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport menejerlarida amaliy mashg‘ulot jarayonlaridagi faoliyatlarini takomillashtirish, keng mulohazaga tayangan holda harakat qilish tizimini yaratish, mavjud

muammolarga nisbatan kreativ yondashuv qobiliyatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida:

talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish uchun mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish, ratsional taqsimlash, umumiy hamda maxsus tayyorgarlik vositalarini maqsadli tanlashga qaratilgan "Loyihalash" modeli ishlab chiqilib, uslubiyatni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida Menejment (Sport tadbirlarni tashkil etish va boshqarish) bakalavriat ta'lim yo'nalishidagi talabalariga "Yengil atletika nazariyasi va uslubiyati" fanidagi amaliy mashg'ulotlarida qo'llanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022 yil 22-dekabrda 06-01/06/13/9486-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning 100 m ga yugurish ko'rsatkichlari 0,91 soniyaga va 2 kg to'ldirma to'pni uloqtirish ko'rsatkichlari 1,3 m ga yaxshilangan;

talabalarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun organizmni harakatga bo'lgan ehtiyojini qoplash va ortiqcha toliqishini keltirib chiqarmaydigan vosita va usullarni ratsional tanlashga qaratilgan "Beshkurash" mashg'ulotlari ishlab chiqilib, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida tayyorlanadigan Menejment (jismoniy tarbiya va sport menejmenti) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining mashg'ulot va musobaqalari jarayonida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022 yil 22-dekabrda 06-01/06/13/9486-son ma'lumotnomasi). Natijada, jismoniy tarbiya va sport menejmenti ta'lim yo'nalishidagi talabalarning 3000 m ga yugurish natijalari 102,2 soniyaga yaxshilangan;

talabalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligidagi katta farqlarni muvofiqlashtirish uchun mashg'ulot va musobaqa jarayonlari modellashtirilib, maxsus harakatlarni dominantligini aniqlashda "ko'p funksiyali shkala" ishlab chiqilib, "Yengil atletikani o'rgatish metodikasi" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda qo'llanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022 yil 22-dekabrda 06-01/06/13/9486-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari 14,3% ga yaxshilangan;

talabalarning jismoniy ko'rsatkichlarini amalga oshirish uchun shiddatli yuklamalarni yuqori darajada bajarishda – sifat bosqichini, amaliy jismoniy tarbiya vositalar tarkibini aniqlashga, ularni maqsadli va vaqt bo'yicha ketma-ketlikda taqsimlashga hamda mashg'ulotlarning tegishli shkalalarini tanlashga imkon beradigan – texnologik bosqichini, natijalarni tahlil qilish uchun - nazorat turlarini o'zida jamlagan "Amaliy jismoniy tayyorgarlik modeli" ishlab chiqilib, portlovchi kuch sifatini rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar Urganch davlat universitetida "Jismoniy madaniyat" yo'nalishida ta'lim oladigan talabalarning amaliy mashg'ulotlariga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligining 2022 yil 22-dekabrda 06-01/06/13/9486-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning joyidan turib uzunlikka sakrash ko'rsatkichlari 38,7 smga va joyidan turib uch xatlab sakrash ko'rsatkichlari 109,8 smga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bobdan iborat bo'lib, 120 sahifa matn, 15 ta jadval, 31 ta rasm, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy o'quv yurti talabalarining jismoniy rivojlanganligi va jismoniy tayyorgarligi darajasini o'rganilganlik holati”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot muammosi bo'yicha rasmiy hujjatlar va nazariy manbalar tahlili, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport menejerlarni jismoniy tarbiya jarayonida jismoniy tarbiya qadriyatlaridan maqsadli foydalanishning didaktik xususiyatlari, tarbiyaviy, jismoniy va aqliy tarkibiy qismlari, didaktik ta'minot, uning mohiyati kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga mos keladigan jismoniy tarbiya tamoyillari, vositalari, usullari va tashkiliy shakllarini tanlash, jismoniy tarbiya va sport mahorati maqsadli shakllantirish, o'qitish, tarbiyalash va tayyorlashning ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlar keng yoritilgan.

Bir qator tadqiqotchilar organizmning jismoniy rivojlanganlik darajasini aniqlash va sport mahoratini takomillashtirish bo'yicha ilmiy ishlar olib borishgan (V.M. Platonov, V.V. Shiyani, F.A. Kerimov).

Bo'lajak menejerlarning jismoniy tarbiya va sport mahorati uning qadriyatlaridan xabardorlik va qabul qilish holati bilan tavsiflangan shaxs jismoniy tarbiyaning ajralmas qismidir. “O'zi uchun” shaxsiy sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash. “Boshqalar uchun” kasbiy faoliyat amaliyotida tarjiba qilish uchun jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga jalb qilish imkonini beradi.

Adabiyot tahlili asosida shaxsning tuzilishi va shaxsning jismoniy tarbiyasi ta'riflarda jismoniy tarbiya va sport mahorati deganda, biz o'quvchi shaxsning jismoniy tarbiya va sport mahorati tarkibining asosiy qismlari ya'ni tarbiyaviy, jismoniy va aqliy bo'lishi kerak deb taxmin qilamiz.

Jismoniy tarbiya va sport mahoratining tarkibiy qismi shaxsning o'z faoliyatini saqlab qolish hamda jismoniy tarbiya qadriyatlarini kasbiy faoliyat amaliyotiga joriy etish uchun jismoniy tarbiya qadriyatlari yig'indisini o'zlashtirishga bo'lgan qiymat yo'nalishini aks ettiradi (T.S. Usmonxo'jayev, R.D. Xalmuxamedov, A.N. Shopulatov).

Jismoniy tarbiya va sport mahoratining tarbiyaviy komponenti talabalarning amaliy, jismoniy tarbiyasi va uslubiy tayyorgarligini shakllantirish, undan o'z-o'zini

takomillashtirish, kelajakdagi kasbiy faoliyatida jismoniy tarbiya qadriyatlarini bilan tanishtirishda amaliy foydalanishni aks ettiradi (O.J.Dadaboyev, S.S.Tajibayev va E.T.Raxmonov).

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi sport mahoratining aqliy tarkibiy qismining mohiyati psixogen mehnat omillariga hissiy qarshilikni shakllantirish, psixogigiyenik o'zini-o'zi boshqarish usullarini o'zlashtirish, jismoniy yuklamalarni optimallashtirish va sport faoliyatini yuksaltirish orqali aqliy salomatlik asoslarini yaratishdan iborat (M.X.Mirjamolov, M.S.Olimov, K.T.Shakirjanova).

Shunday qilib, tashkil etilgan jismoniy tarbiya va sport faoliyati qadriyatlaridan foydalanish asosida o'qitish, tarbiyalash va shaxsni rivojlantirishni har tomonlama amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning uslublari va uning tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida, ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, anketa so'rovnomasi, pedagogik kuzatuv, pedagogik-nazorat, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport menejerlarni funksional holatini aniqlash, pedagogik tajriba va matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanganligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, pedagogik tadqiqotning 3 ta bosqichda tashkil qilinganligi ko'rsatib o'tilgan:

I bosqich (2019-2020 yy.). Ushbu bosqichda tadqiqot mavzusiga doir adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, tadqiqot mavzusini shakllantirish, tadqiqotning maqsad va vazifalarini qo'yish, yechilishi lozim bo'lgan muammolarni aniqlash, pedagogik tajribani o'tkazish, bosqichlari hamda muddatlarini belgilash, tajriba tadqiqotlarida qo'llaniladigan vosita va uslublarni aniqlashtirish ishlari amalga oshirilgan.


II bosqich (2020-2021 yy.). Bu bosqichda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida Menejment (jismoniy tarbiya va sport menejmenti) bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qiydigan talabalarning jismoniy tayyorgarligida yengil atletika sport turi bo'yicha mashg'ulot jarayonlarining tarkibiy xususiyatlari va mazmunini o'rganish, pedagogik tajriba uchun nazorat hamda tajriba guruhlarini tanlash, ularga tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan vosita va uslublarning mazmunini tushuntirish, tadqiqotlarni o'tkazish uchun sinaluvchi guruh talabalarni mashg'ulot rejalari, amaliy-mashg'ulot jarayonlaridagi faoliyatini kuzatish ishlari amalga oshirilgan.

III bosqich (2021-2022 yy.). Bu bosqichda biz tomonimizdan taklif qilingan maxsus tanlab olingan yengil atletika sport turi orqali, sportga qiziqtirish va mashg'ulot hamda musobaqalarni tashkillashtirish kamchiliklarini o'rgangan holda, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport menejerlariga muammolarni yechish hamda sportchilarga qulayliklar yaratishni o'rgatish metodikasi asosida pedagogik tajribadan o'tkazildi.

Pedagogik tajriba davomida nazorat va tajriba guruhlarida bo'lajak jismoniy tarbiya va sport menejerlari uchun tanlab olingan yengil atletika sport turi va unda o'tkazilgan mashg'ulotlar orqali dolzarb muammolari, sohada malakali mutaxassislar qo'yilayotgan zamonaviy talablar hamda jismoniy tarbiya va sport sohasida zamonaviy mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-nazariy tendensiyalari bo'yicha bilimlari oshirildi va sport mahorati takomillashtirildi.


Pedagogik tajribada nazorat va tajriba guruhida 12 nafardan iborat jami 24 nafar talaba ishtirok etdi.

Dissertatsiyaning “**Oliy o‘quv yurti talabalarining kompleks tayyorlash metodikasi**” deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Menejment (jismoniy tarbiya va sport menejmenti) ta’lim yo‘nalishi talabalarining jismoniy tarbiya, ommaviy sport, sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish munosabatini o‘rganish maqsadida sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazilib, ularning jismoniy tarbiya va sportga doir qiziqishlari va bilimlari aniqlangan va natijada quyidagi javoblar olingan:



1-rasm. “Siz qaysi sport turlarini yaxshi ko‘rasiz?” savoliga respondentlarning javoblari

Respondentlarning 34% “Futbol”, 23% “Yengil atletika”, 10% “Basketbol, voleybol”, 6% “Og‘ir atletika”, 8% “Suv sport turlari”, 22% “Boks va boshqa jang san’atlari” deb javob berilgan.



2-rasm. “Sport bilan shug‘ullanishingizga nima xalaqit beradi?” savoliga respondentlarning javoblari

75,5% “Vaqt yetishmasligi” deb belgilashgan. Shuningdek, “Dangasalik”, “Xohishni yetarli emasligi”, “Xalaqit beradigan narsalar yo‘q”, “Hech nima”, “Sport bilan shug‘ullanishimga hech nima xalaqit bermaydi”, “Hech narsa” javob variantlari ham mavjud.



3-rasm. “Bir oyda sport bilan shug‘ullanishga qancha pul sarflaysiz?” savoliga respondentlarning javoblari

57,1% “Men umuman sarf qilmayman”, 32,7% “500 minggacha” va 11% 500 mingdan bir million so‘mgacha deb belgilangan.



4-rasm. “Jismoniy tarbiya va sport menejmenti yo‘nalishini tanlab xato qilmaganmisiz?” savoliga respondentlarning javoblari

“Adashib kirganman”10%, “Jismoniy tarbiya va sport menejmenti nima ekanligini tushunmayapman”11,5%, “To‘g‘ri tanlaganman”75,5%, javob variantlari belgilangan.



5-rasm. “Sizningcha jismoniy tarbiya va sport menejmenti yo‘nalishi talabalarida sport razryadi bo‘lishi kerakmi?” savoliga respondentlarning javoblari

50% “Ha”, 44% “Shart emas”, 6 % “Bo‘lganligi zarar qilmaydi” deb belgilashdi. Shuningdek, “Yo‘q! Ammo, talabalar professional sportchilar haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lishlari lozim!”, “Albatta bo‘lishi kerak. Sport menejeri sportchi bo‘lsagina bu sohada ishlay oladi” javob variantlari ham mavjud.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport menejerlarini jismoniy tarbiya va sport haqida tushunchasi va kasbiy mahoratini oshirishda sport menejmenti ta‘lim yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalarining amaliy jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha ishlab chiqilgan metodologiyasi loyihaviy, mazmuniy, protsessual-texnologik va boshqaruv modullarini o‘z ichiga oladi. (6-rasm)

Ushbu metodika innovatsion pedagogik o‘rgatish asosida yaratilib, 4 ta modul hamda 9 ta bosqichdan va 1 ta vositadan iborat bo‘lib, bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport menejerlarini sport mahorati va kasbiy bilimini oshirishda samarali uslubiyat sifatida aniqlangan.

Jumladan, yengil atletika sport turiga xos bo‘lgan va hozirgi kunda dolzarb bo‘lgan “ommaviy sport musobaqalarini” tashkil etish va o‘tkazishda o‘z samarasini ko‘rsatdi.

Loyihalash moduli - maqsadli va natijaviylik bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ulardan birinchisi amaliy jismoniy tarbiya metodologiyasining maqsadi va vazifalarini, shuningdek sport menejmenti ta‘lim yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalarining tayyorgarligiga qo‘yiladigan malaka talablarini ochib beradi. natijaviylik bosqichida kasbiy mahorati tarkibi, shu jumladan baholash xususiyatlari

mavjud bo'lib, ular jismoniy tarbiya jarayonida metodikani amalga oshirish natijasida talabalar kasbiy mahoratini muvaffaqiyatli shakllantirishga sabab bo'ladi.

Mazmuniy moduli - uchta to'plamni o'z ichiga oladi. Funktsional bosqich menejning mavjud professional rolining tarkibini aniqlaydi. Shuningdek, u bajaradigan funksiyalarni ochib beradi. Sifat bosqichida muhim professional jismoniy, ishbilarmonlik, shaxsiy, funktsional jihatlari, psixofizik fazilatlar hamda jismoniy rivojlanish va jismoniy holat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya vositalari to'plamida professional funksiyalarini shakllantirish va sport menejmenti ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning muhim fazilatlarini rivojlantirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan tegishli vazifalar guruhlar mavjud. Ushbu bosqichlarning elementlari sport menejmenti ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarining amaliy jismoniy tayyorgarligining vazifalari va mazmunini mavjud vazifalar va bir vaqtning o'zida namoyon bo'ladigan fazilatlarga muvofiq aniqlashga, ularga mos keladigan jismoniy tarbiya vositalarini maqsadli tanlashga imkon beradi.

Texnologik modul - ushbu metodika moduli amaliy, rejaviy va texnologik jarayonlar bilan ifodalanadi. Amaliy jarayonning elementlari sport menejmenti ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning amaliy jismoniy tayyorgarligi darslarining dasturiy mazmuni, shakllari va shakllangan maqsadli vositalar majmui tarkibini ochib beradi. Rejaviy bosqichda talabalar – bo'lajak sport menejerlar uchun amaliy jismoniy tarbiya jarayonining tuzilishini aks ettiruvchi rejalashtirish bilan bog'liq hujjatlarning to'liq tarkibini o'z ichiga oladi. Texnologik bosqichda mashg'ulotlar jarayonida sport menejmenti ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning amaliy jismoniy tayyorgarligi jarayonining mazmunini amalga oshirish mexanizmini ochib beradigan elementlar mavjud. Ushbu jarayonlardagi elementlar bizga amaliy jismoniy tarbiya vositalarining tarkibini aniqlashga, ularni maqsadli va vaqt bo'yicha ketma-ketlikda taqsimlashga hamda mashg'ulotlarning tegishli shakllarini tanlashga imkon beradi. Shuningdek, u sport menejmenti ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning amaliy jismoniy tayyorgarligi dasturini bajarish uchun tegishli texnologiyani taklif etadi.

Nazorat moduli - ushbu modulning mazmuni test va baholash to'plamlarining elementlari bilan ifodalanadi. Test to'plami talabalarning o'ziga xos muhim jismoniy, ishbilarmonlik, shaxsiy, funktsional va psixofiziologik fazilatlari, shuningdek jismoniy rivojlanish va jismoniy holat ko'rsatkichlarini namoyish etish darajasini aniqlashga imkon beradigan nazorat mashqlari va testlar tizimini o'z ichiga oladi. Baholash to'plamida taqdim etilgan maxsus ko'p darajali baholash shkalalari tizimi sport menejmenti ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarni o'ziga xos muhim fazilatlarni o'zlashtirgan talabalarda rivojlanish darajasining sifat tavsifini berishga imkon beradi.



6-rasm. Sport menejmenti ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning amaliy jismoniy tayyorgarligi metodikasining tuzilishi

Nazorat moduli bu nafaqat dars mashg'ulotlaridagi amaliy-jismoniy tayyorgarlik jarayonining samaradorligini aniqlashga, balki o'quv rejasini amalga oshirishning keyingi bosqichlari mazmuniga zarur tuzatishlarni kiritishga ham imkon berdi.

Texnologik bosqich dastur va mashg'ulotlarning shakllariga asoslangan sport menejmenti ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning uzoq muddatli amaliy jismoniy tayyorgarligi rejasini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan texnologiya bilan ifodalanadi. Bu jismoniy tayyorgarlik modeli doirasida muhim professional fazilatlarni shakllantirish darajasini belgilash va ularni rivojlantirish vazifalarini belgilash asosida tegishli maqsadli vositalarni aniqlash va amaliy jismoniy tarbiya jarayonini rejalashtirish imkonini beradi.

Jismoniy tayyorgarlik modelini amalga oshirishning har bir bosqichi aniq vazifalarga, vositalar, usullar va baholash mezonlarining maqsadli majmualariga mos keladi. Faqat 4-bosqichning vazifalari barcha 3 yillik o'qitish davomida ham joriy, ham bosqichli nazorat jarayonida olingan natijalarni tahlil qilish va o'quv mazmunini tuzatish bilan hal qilinadi (7-rasm).

Sport menejmenti ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun amaliy jismoniy tayyorgarlikda sport mahoratini oshirish uchun ishlab chiqilgan metodikaning nazorat moduli sinov va baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Nazorat modulining sinov bosqichi bo'lajak sport menejerining samarali professional faoliyati uchun muhim bo'lgan fazilatlarning rivojlanish darajasini aniqlashga imkon beradigan testlar va sinovlarni o'tkazish uchun standartlashtirilgan jarayonlarni to'liq tarkibi va tavsifini qamrab oladi.

Nazorat modulining baholash bosqichi mazmuni menejering samarali professional faoliyati uchun muhim bo'lgan fazilatlarning rivojlanish darajasini baholash tizimi sifatida ishlab chiqilgan.



7-rasm. Amaliy jismoniy tayyorgarlik modeli

Unda sport menejmenti ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar darsdan keyingi mashg'ulotlarda haftasiga 3 marta 80 daqiqadan 10 oy davomida nazorat va tajriba guruhlariga bo'lingan holda mashg'ulotlar olib borishgan (haftada 240 daqiqa, 1 oyda 960 daqiqa va 10 oy davomida 9120 daqiqa va 114 ta mashg'ulot o'tkazildi).

Unda tezkorlik sifatini aniqlash uchun qisqa, ya'ni 100 m masofaga yugurish tanlangan. Tanani tepa qismini portlovchi kuchini aniqlash va keyinchalik rivojlantirish uchun esa 2 kg to'ldirma to'pni (meditsinbol) bosh ortidan uloqtirish va tanani pastki qismining portlovchi kuch sifatini aniqlash va rivojlantirish uchun joyidan turib uzunlikka sakrash hamda joyidan turib uch xatlab sakrash mashqlari qo'llanilgan. Talabalarning chidamkorlik sifatini aniqlash va uni rivojlantirish uchun esa uzoq masofaga ya'ni 3000 m masofaga yugurish olingan. Doimiy va tizimli ravishda sport bilan shug'ullanmagan talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi farqlanadi va ular doimiy ravishda shug'ullanib sport turiga qiziqishlarini oshirish maqsadida "Beshkurash" musobaqasi modeli ishlab chiqildi. Uning mazmuni shundaki, o'rnatilgan tartibda mashqni bajarib bo'lgach ular ma'lum bir ballga ega bo'lishadi va keyingi mashqni bajarishga tushishadi. Shunday qilib, 5 ta mashqni bajarib bo'lgandan so'ng umumiy ballga ega bo'ladi. Ya'ni biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirishga qaratilgan dastur – tajriba guruhida raqobatbardoshlikni oshirib, jismoniy ko'rsatkichlarni yaxshilashga motivatsiya beradi. Baholash tizimi esa quyidagidan iborat: tajriba guruhining

talabalar soniga nisbatan ballar beriladi. Ya'ni guruhda 12 nafar talaba mavjud bo'lsa, eng yuqori ball har bir mashq uchun 12 ball beriladi (jami 60 ballni tashkil etadi) va mashq bajarishda eng yaxshi natijaga ega bo'lgan talabaga 12 ball beriladi. Undan keyingi turgan ikkinchi natijaga esa 11 ball, uchinchi natijaga 10 ball va hokazo ketma ketligi bo'yicha baholanib boriladi. Ushbu baholash tizimda talaba ma'lum bir mashqda o'z qobiliyatini ko'rsata olmay past ball olgan bo'lsa, unda boshqa mashqda muvaffaqiyatli ishtirok etib, yuqori ball olishga imkoniyat bo'ladi va "Beshkurash" modellashtirilgan musobaqada yuqori pog'onaga chiqish motivatsiyasi paydo bo'ladi. "Beshkurash" modellashtirilgan musobaqadagi mashqlarga 1 oy davomida turli vositalar, ya'ni tezkorlikni, portlovchi kuchni va chidamkorlik sifatlarni takomillashtirishga qaratilgan mashqlar orqali amalga oshirilib har oyning oxirgi mikrotsiklning oxirgi kuni "Beshkurash" modellashtirilgan musobaqa o'tkaziladi va natijalarni salbiy yoki ijobiy o'sish dinamikasi nazorat qilinadi.

Dissertatsiyaning "**Oliy o'quv yurti talabalarining jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishda qo'llanilgan metodika samaradorligi**" deb nomlangan to'rtinchi bobida talabalardan iborat nazorat va tajriba guruhlarida o'tkazilgan pedagogik tajriba davomida ko'rsatgan natijalarining tahlili bayon qilingan.

Unga ko'ra, sport menejmenti yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning jismoniy rivojlanishi yengil atletika sport turidagi mashg'ulotlar yordamida maxsus chidamlilik, sakrovchanlik qobiliyatlari va umumiy funksional tayyorgarligi "Beshkurash" tizimi orqali amalga oshirilgan. Ushbu ko'rsatkichlar organizmning ommaviy sport tadbirlarida xususan, qisqa marafonlarda va turli musobaqalarda ishtirok etishiga hamda sport tadbirlarida menejerlik qobiliyatini rivojlantirishda, mashg'ulot va musobaqa jarayonida kutilmagan hodisa va voqealarda kreativ yondashuv qobiliyatini oshirishga imkon yaratdi. Bu bilan o'zlari yuqorida ko'rsatilgan tadbirlarda nafaqat tashkilotchi menejer sifatida, balki mashg'ulot yoki musobaqa faoliyatida o'zida his qilgan holda ishtirok etib, sportchilar va tomoshabinlarga qulayliklar yaratish borasida fikr va mulohazalar kengayishiga zamin yaratdi.

Talabalarining pedagogik tajriba boshida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan modellashtirilgan "Beshkurash" musobaqasida quyidagi natijalar olinib, tajriba va nazorat guruhleri o'rtasida jismoniy tayyorgarlik darajasi bo'yicha farqi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

NG va TG talabalarini pedagogik tajriba boshida jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarini qiyosiy taqqoslamasi

Tajriba boshida	Nazorat guruhi (n=12)			Tajriba guruhi (n=12)			t	p
	\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %		
100 m. yugurish (soniya)	14,7	1,02	6,93	14,9	1,06	7,14	0,24	>0,05
3000 m. yugurish (soniya)	815,8	71,30	8,74	819,3	56,25	6,88	0,08	>0,05
JT Uzunlikka sakrash (sm)	206,83	21,92	10,60	196,75	20,42	10,38	1,17	>0,05

1-jadval davomi

JT Uchxatlab sakrash (sm)	618,83	60,82	9,83	613,58	58,55	9,54	0,22	>0,05
2 kg. To'ldirma to'pni uloqtirish (m, sm)	8,49	0,97	11,39	8,40	0,99	11,85	0,24	>0,05

Izoh: Tajriba boshida NG va TG o'rtasidagi nisbiy farqi 1,56 %

